

## MUSTAFO CHO‘QAY ISTIQLOL KURASHCHISI

**Abdullayeva Parizoda Botir qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

**O‘razbayeva Mahbuba Qadambayevna**

Ilmiy rahbar:

Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasini mudiri, dotsent

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Turkistonning fidoyi farzandi bo‘lmish Mustafoni Cho‘qay o‘g‘lining “Istiqlol jallodlari” asari tahlilga tortildi. Asardagi turkistonliklarning asosiy nuqson va kamchiliklari, sovet hukumatiga qaramlik sabablari ko‘rsatib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar:** Mustaqillik, fojia, Mustafoni Cho‘qay, ahillik, millat, turkistonlik.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida jadidchilik harakati vujudga keldi. Bu harakatning tashkilotchilari – jadidlar yurtimizning porloq kelajagi, xalqimizning ozod va hur bo‘lishi uchun buyuk xizmat ko‘rsatishdi. Ana shunday fidoyi jadidlardan biri Turkiston muxtoriyati hukumatining Bosh vaziri Mustafoni Cho‘qay o‘g‘li hisoblanadi. Mustafoni Cho‘qay o‘g‘li Turkiston muxtoriyatining tashqi ishlar vaziri sifatida siyosiy va ijtimoiy jihatdan xalqimiz, millatimiz hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirishga harakat qildi. O‘zining ko‘rgan-kechirganlari asosida “Xotira parchalari” nomli asar qoldirdi. Mazkur asar dastlab “Xotira parchalari” nomi bilan e‘lon qilingan bo‘lsa, keyinchalik “Istiqlol jallodlari” deya nomlandi. Ushbu kitob Mustafoni Cho‘qayning bevosita o‘zi qatnashib, ko‘rib guvohi bo‘lgan voqea-hodisalar hamda esdalik xotiralarni o‘z ichiga oladi. Asarda sovet hukumati davrida xalqimizning siyosiy-ijtimoiy holati, jadidlar harakatining maqsadi, millatimiz boshiga tushgan og‘ir savdolar, turkistonliklarning asosiy nuqson va kamchiliklari haqida so‘z yuritiladi.

Mustafoni Cho‘qayning yozishicha bir davlatning ikkinchi bir davlatga tobe bo‘lishi, albatta bosqinchi davlatning zo‘ravonlik harakati bilan sodir bo‘ladi. Bu mamlakat qaram bo‘lishining birinchi sababidir. Ikkinchisi esa davlatning o‘zi ichki nizolar girdobida qolib ketishi natijasida kuchsizlanib qolishidir. Har qanday mamlakat qanchalar buyuk va zo‘r bo‘lmasin, uning siyosiy hayotida ichki tortishuvlar, nizolar mavjud ekan, u hech qachon mustaqil bo‘lolmaydi. Noahillik, fitna-fasod davlatni ich-ichidan yemiradi. Tabiiyki, bunday davlat tashqi tomondan keladigan zarbaga dosh

berolmaydi. Shu boisdan, yurt tinchligi masalasi faqatgina hukmdorlarga bog‘liq emas. Balki undagi xalq ham vatan obodligi yo‘lida bir tan-u bir jon bo‘lib, kurashmog‘i darkor. Shundagina dushman ustidan g‘alaba qozonish mumkin. Mustafo Cho‘qay ham inilob yaratgan qulay fursatdan foydalana olmaganimizni quyidagicha ifodalaydi: “Milliy manfaatlar yo‘lida kurashish lozimligini bilganlari holda Turkistonliklar o‘zaro kuchli birlik qura olmadilar va bunga ulgurmadilar”[1:9]. Turkistonliklar inqilob orqali turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan edilar. Biroq ular imkoniyatdan unumli foydalana olmadilar. Chunki, ular o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, birdamlik yo‘q edi. Bu esa xalqimizning asosiy kamchiliklaridan biridir. Muallif ham ushbu asarni o‘z kamchiliklarimizga diqqat bilan ahamiyat berib o‘tadi. Yana bir jihat borki, unga to‘xtalmay o‘tishning iloji yo‘q. Tarixda xalqimizning katta xatolaridan biri ilm-ziyoga qiziqishning, e‘tiborning kamligidir. Shu birgina xato kelajakda yoshlar hayotiga o‘zining ulkan ta‘sirini ko‘rsatdi. Ushbu holat Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida ham o‘z aksini topgan. Ilm hamma vaqtda ham insonning zulmat yo‘llarini yorituvchi mash‘aldir. Ilmli kishi doimo barchadan bir qadam oldinda bo‘ladi va o‘z aql-idroki bilan yuksak marralarni zabt etadi. Ilmsiz kishi esa har vaqt qiyinchiliklarga, mashaqqatlarga duch keladi, ular oldida chorasiz qoladi. Shunday ekan, ilm-fanga e‘tibor katta bo‘lgan xalqlar, davlatlar hech narsadan qo‘rqmaydilar. Muallif yosh bo‘lishiga qaramasdan, Milliy Markazning boshlig‘i etib tayinlanadi. Bu vaziyatdan u og‘ir holatga tushib qoladi. Sababi, “Chunki bu hol mening shaxsiy qadr-qimmatim natijasi bo‘lmasdan, bizning ziyoli kuchlarimizning ozligi va unga bo‘lgan tashnaligimizni ko‘rsatardi”.[1:31] Bu parchadan anglashiladiki, Mustafo Cho‘qay o‘zining qadri ortidan emas, balki ma‘rifatli, ilmli insonlarning kamligi uchun ham ushbu mansabga saylangan. Vaholanki, o‘sha paytda bizga bunday ziyoli insonlardan juda ko‘plari kerak edi. Ijodkor buni o‘z boshidan o‘tkazgani uchun ham haqiqatni dard bilan, alam bilan ifoda etmoqda. Axir, bizning zamindan qanday buyuk insonlar, ilm-fan arboblari yetishib chiqmagan edi. Xalqimizning bu holga kelib qolishi muallifni ham azoblaydi. Shuning uchun u xalqimizni o‘ziga xatolari, kamchiliklaridan saboq olib, o‘zaro ahil bo‘lishga chaqiradi.

Muallif asarda tilmochlar haqida ham ba‘zi muhim ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. “Oqmasjid shahri o‘zi esa odatan kotib va tilmoch nomzodlari uyasi shaklini olgan edi. Mustamlaka holidan bo‘lgan bir mamlakatda tilmoch ma‘murlar u mamlakatning milliy manfaati nuqtai nazaridan eng zararli, eng qo‘rqinchli maxluqlardir”. Yozuvchi bu so‘zlar orqali o‘sha davrdagi ba‘zi tilmochlarni tavsiflab o‘tadi. Tilmochlar o‘z manfaatini o‘ylab, ya‘ni rus idoralarida ishlashni istab, o‘z xalqini talaydi, hatto qon to‘kilishiga ham sababchi bo‘lishadi. Sovet davridagi aksar tilmochlar xalqiga, millatiga ana shunday adolatsizliklar, insofsizliklar qilishgan. Bunday ikkiyuzlamachi, riyokor va xudbin kimsalarning hayoti, ularning yomon ishlari tariximizda o‘chmas iz

qoldirib ketdi. Inson bir yurtida tugʻilib, voyaga yetdimi u joy inson uchun ona Vatan hisoblanadi. Shu bilan birga insonning atrofidagi odamlar u uchun birodar, yor-u doʻst boʻladilar. Birodarlarning haqini yeyish, ularga zulm qilish, jabr yetkazish shuning uchun ham ogʻir gunohdir. Bunday inson oʻz xalqiga xiyonat qilgan sanaladi. Yolgʻiz oʻtmishda emas, hamma vaqt har yerda ana shunday insonlar uchrab turadi. Ularning koʻpchiligi oʻzining qilmishlari tufayli xalqning qargʻishiga, taʼna-malomatiga qolishadi. Ammo besh qoʻl barobar emas deganlaridek, tilmochlar orasida ham insofli, adolatli kishilar boʻlgan. “Tilmochlar orasida faqat birgina shaxsni yaxshi sifatlar bilan tanirdim. U Oqmasjid mahkama boshligʻi yonida tarjimonlik qilib turgan Erali Qosim oʻgʻli degan kishi edi. Uning ruhan pokiza boʻlganligi, boylik, pullarga qiziqib harom yoʻllarga kirmaganligini qatʼiylik bilan soʻzlash mumkin”. [1:15.] Yozuvchining halol, pokiza, adolatli insonlarni hurmat qilishi, ularni qadrlashi yuqoridagi soʻzlardan anglashilmoqda. Umuman olganda, bunday kishilarni nafaqat yozuvchi, balki butun xalq eʼzozlaydi. Chunki iymon, insof kishiga faqat yaxshilik keltiradi. Erali ham shu orqali oʻzidan yaxshi xotiralar qoldira oldi. U butun hayoti davomida toʻgʻrilikka, rostgoʻylikka amal qilib yashadi. Xalqiga beminnat yordam koʻrsatishga harakat qildi, ogʻir vaziyatlarda ham dushman tomon koʻmagiga muhtoj boʻlmadi. Insondan bu dunyoda faqatgina yaxshi nom qoladi. Shunday ekan, bu foni dunyoda odamzod oʻzidan yaxshi nom va savobli amallarni qoldirib keta olishi zarur. Boisi, unday inson oʻzi jismonan oʻlik boʻlsa-da, xalq ongida, tafakkurida maʼnan doimo tirikday saqlanadi.

Sovet davrida xalqimizga koʻp tomondan tazyiqlar oʻtkazilgan, baʼzida kamsitishlar ham boʻlgan. Ular yurtimizga kirib kelishganda bizga madaniyatni, ilm-fanni oʻrgatdik deb oʻzlarini yuksaklarga koʻtarishgan. Lekin oʻzbek xalqi avvaldan ham madaniyatli, andishali xalq edi. Siyosiy hukumat oʻz qilmishlarini oqlash niyatida aynan shunday bahona koʻrsatgan. Bu holat hozirgi har bir kelajak avlod qalbida ularga nisbatan nafrat tuygʻusini uygʻotadi. Asarda koʻpgina generallarning, davlat arboblarning xalqimiz haqidagi salbiy fikrlari keltirilgan. Ularni oʻqigach, xalqimiz oʻtmishining ayrim oʻrinlarda bagʻoyat ogʻir kechganligini his etamiz. “Zolim rus umumvolilari ichida eng chirkin va gʻaddor bir tip – **general Samsonov**: “Rus mujjining oʻgʻrisi ham har qanday turkistonlikdan, uning avliyosidan ham yaxshidir” [1:18]. Generalning turkistonliklarni yoqtirmasligi, ularni juda past oʻrinda koʻrishi uning nutqidan ham anglashilib turibdi. Hattoki parchadagi soʻzlardan muallifning generalga oshkora nafrati sezilib turibdi. Oʻz xalqini, millatini chin dildan sevgan insonlargina dushmandan bu darajada nafratlana oladi. Samsonov bundan tashqari turkistonliklarning haqsizliklar ustidan yozgan arizalarni ham qabul qilmaslikni buyurgan edi. Bu ishlar uning naqadar tuban kimsa ekanligini koʻrsatib turibdi. Millatimiz shu kunlarga yetib kelguncha oz muncha xoʻrlıklar, haqoratlar

ko'rdimi. Albatta o'lkamiz tarixida hukumatning bunday gaplari, harakatlari oz bo'lmagan. Ammo xalqimiz bariga sabr va qanoat orqali erishdi. O'zi orziqib kutgan istiqloolni ko'rdi.

Bir tomondan, bu voqealarga hukumatdagi ba'zi insonlarni aybdor desak, ikkinchi tarafdin bevosita yana o'zimiz ham sababchi bo'lganmizni inkor eta olmaymiz. Buni yuqorida ham ta'kidlab o'tgan edik. Bejizga ijodkor o'z asarida ana shu jihatga qayta-qayta murojaat qilmagan. Boisi, xatolarimiz hayotimizning salbiy tarafga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ularning oqibatida qancha insonlar jabr chekdi. Turkistonliklar esa bundan xulosa chiqarishmadi. Shuning uchun ham muallif ko'p o'rinlarda xalqimizni xatolardan ogoh bo'lib, ularga e'tiborli bo'lishga undaydi. Bizning zaif nuqtamiz ham o'zimizning noahilligimiz, ziyoli kuchlarning, harbiy qurollarning ozligi, siyosiy savodxonlikning yo'qligi edi. Ya'nikim, turkistonliklar siyosat bobida ma'lum tushuncha va fikrga ega ham faol ham emas edilar. Holbuki, o'zimiz mustaqil bo'lishni istar ekanmiz har bir sohani, siyosatni mukammal darajada bilmog'imiz zarur edi. Bir qancha fidoyilarning tinimsiz mehnati, mashaqqati tufayli Turkiston Muxtoriyati tuzildi, lekin u uzoq yashamadi.

“Hayhot! Yana shu bizning hozirsizligimiz, jonli, texnikaviy kuchlarimizning ozligi, xalqimiz tabaqasida siyosiy tushuncha yetishmasligi qarshimizga chiqdi. Bizga bu baxtsizlikni son jihatdan oz bo'lsa ham kuchli tashkilot hamda mo'l qurolga ega bo'lgan dushmanimiz keltirdi. Muxtoriyatimiz ikki oygina yashadi va kuchli qurollangan dushman qarshisida yiqildi”. [1:18] Bu dildan chiqqan so'zlar har qaysi insonning qalbini junbushga keltiradi. Chunki bu so'zlar ayni haqiqat. Rus xalqi bir maqsad yo'lida, ya'ni O'rta Osiyoni bosib olish niyatida birlasha oldilar va bu ishni bosqichma-bosqich amalga oshirdilar. Keyinchalik sovetlar ham bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilganliklari uchun o'z niyatlariga osongina erishdilar. Vaholanki, yozuvchi ta'kidlaganidek, ular son jihatdan ko'p ham emas edilar, biroq ular kuchli ittifoq tuza oldilar va har jihatdan xalqlarini qurol bilan ta'minlab qo'ydilar. Sovet hukumatining ham asosiy yutug'i shunda edi. Demak, har qaysi zamonda ham birdamlik va ahillik yurt kelajagining taqdirida muhim rol o'ynaydi. Xalqning ertangi kuni uning o'zaro ahlligiga bog'liq bo'ladi. Xalqimizdagi: “Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar” maqoli ham bejiz aytilmagan. Insoniyat mislsiz kuchga ega, qachonki u bir maqsad yo'lida birlasha olsa. Insonlar bunda o'zaro hamkorlik, kelishuv asosida ish ko'ra olishlari kerak. Shundagina, ular bir jamoa bo'lib o'z maqsadlari sari ildam qadam tashlaydilar. Lekin insonlar o'zlari bir jamoa bo'lib, ahil yashay olmasalar, bu davlatni inqirozga olib keladi. Ularning o'zaro birlasha olmasliklariga asosiy sabab o'zaro bir-birlariga bo'lgan adovat, hasadning mavjudligidadir. Jamoa bo'la olmagan insonlar bir maqsad yo'lida birlashishni istamaganlari holda bir-birlariga choh qaziydilar. Bu holatdan esa aqlli va tadbirkor insonlar unumli foydalanib

qoladilar. Qisqasi, xalqimiz ham mana shu ikkinchi toifaga mansub xalqlardan edi. Shu sababdan o'tmishimizning ko'p xotiralari bizga zulmatni eslatadi. Axir shu bois xalqimiz qancha zulm, qiyinchiliklar, fojialarni boshdan kechirdi-ku. Ammo doimo xalqimiz ertasidan xavotirda bo'lgan mard insonlar ham bo'lgan. Ular xalqimizni zulmatdan ziyo tomon olib chiqishdi va bir umrga insonlar qalbidan joy olishdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. M. Cho'qay Istiqlol jallodlari. – Toshkent, TRUST AND SUPPORT MCHJ. 2022., 93 –b.
2. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Qullikdan hurlikka A.Ko'char – Toshkent: Muharrir nashriyoti. 2019 – 128b.
4. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
5. Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи. Т., ILM ZIYO ZAKOVAT. 2023. 120b.
6. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
7. www. Library.ziyonet.uz
8. www. Kh-davron.uz